



SOCIO-PEDAGOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING YOUTH THINKING IN NEW UZBEKISTAN

Gulnoza Esonaliyeva

Master's student in the specialty "Methods of Teaching Social and Humanitarian Sciences (Foundations of Spirituality)"

*National University of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: New Uzbekistan, youth thinking, socio-pedagogical foundations, educational institutions, critical thinking, innovative education.

Received: 15.03.26

Accepted: 26.03.26

Published: 27.03.26

Abstract: This article provides a deep scientific analysis of the socio-pedagogical foundations of the development of youth thinking in New Uzbekistan. The study reveals the importance of the social environment, state educational policy, and modern pedagogical approaches used in educational institutions that affect the formation of youth thinking. The article also covers the theoretical and practical aspects of the development of youth thinking based on national and international scientific sources, aphorisms, and quotes. The results of the study allow us to develop scientific and practical recommendations that serve to develop independent, critical, and creative thinking competencies of young people in educational institutions.

YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLAR TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-PEDAGOGIK ASOSLARI

Gulnoza Esonaliyeva

Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish

metodikasi (ma'naviyat asoslari) mutaxassisligi magistranti

O'zbekiston Milliy universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, yoshlar tafakkuri, ijtimoiy-pedagogik asoslar,

Annotatsiy: Mazkur maqolada Yangi O'zbekistonda yoshlar tafakkurini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari

ta'lim muassasalari, tanqidiy fikrlash, chuqur ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda yoshlar tafakkurining shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy muhit, davlat ta'lim siyosati hamda ta'lim muassasalarida qo'llanilayotgan zamonaviy pedagogik yondashuvlarning ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, maqolada milliy va xalqaro ilmiy manbalar, aforizmlar va sitatalar asosida yoshlar tafakkurini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Tadqiqot natijalari ta'lim muassasalarida yoshlarning mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi.

СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ МЫШЛЕНИЯ МОЛОДЕЖИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Гулноза Эсоналиева

Магистрантка по специальности «Методика преподавания социально-гуманитарных наук (основы духовности)»

Национальный университет Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

<p>Ключевые слова: Новый Узбекистан, мышление молодежи, социально-педагогические основы, образовательные учреждения, критическое мышление, инновационное образование.</p>	<p>Новый Узбекистан, мышление молодежи, социально-педагогические основы, образовательные учреждения, критическое мышление, инновационное образование.</p>	<p>Аннотация: В данной статье глубоко научно анализируются социально-педагогические основы развития мышления молодежи в Новом Узбекистане. В исследовании раскрывается значение социальной среды, государственной образовательной политики, а также современных педагогических подходов, применяемых в образовательных учреждениях, влияющих на формирование мышления молодежи. Кроме того, в статье на основе национальных и международных научных источников, афоризмов и цитат освещаются теоретические и практические аспекты развития мышления молодежи. Результаты исследования позволяют разработать научно-практические рекомендации, направленные на развитие у молодежи компетенций самостоятельного, критического и творческого мышления в образовательных учреждениях.</p>
--	--	---

Kirish. "Tafakkur – insonning eng buyuk boyligidir" degan fikr Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosida alohida o‘rin tutadi. Abu Nasr Forobiy ta’kidlaganidek, “Jamiyatning kamoloti inson tafakkurining kamolotiga bevosita bog‘liq”. [1] Bugungi kunda ushbu g‘oya Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining asosiy mazmuni bilan uyg‘unlashmoqda. [2] Globallashuv, axborot oqimlarining keskin ortishi va raqamli texnologiyalarning jadal rivoji yoshlar oldiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Endilikda ta’lim tizimining vazifasi faqat bilim berish bilan cheklanmay, balki yoshlarning mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va innovatsion qarorlar qabul qilish qobiliyatini shakllantirishdan iboratdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Yangi O‘zbekistonni barpo etish uchun yangicha fikrlaydigan, tashabbuskor va mas’uliyatli yoshlar zarur”. [3] Shu jihatdan, yoshlar tafakkurini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik asoslarini ilmiy jihatdan tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Yoshlar tafakkurini rivojlantirish bugungi jamiyat taraqqiyotining markaziy ijtimoiy va pedagogik vazifalaridan biri hisoblanadi. Globallashuv jarayonlari, ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi, shuningdek axborot resurslarining kengayishi yoshlarning intellektual salohiyati va mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylantirdi. Shu bois Yangi O‘zbekiston sharoitida yoshlar tafakkurini rivojlantirish ijtimoiy, pedagogik va innovatsion yondashuvlarni uyg‘unlashtirishni talab qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida yoshlar aholining taxminan 60 foizini tashkil etadi, bu esa mamlakat kelajagi va ijtimoiy taraqqiyot uchun ularning intellektual salohiyatini oshirishni strategik vazifa sifatida belgilaydi. Shu maqsadda davlat tomonidan “Yoshlar – kelajagimiz”, “Raqamli O‘zbekiston” va “Innovatsion rivojlanish strategiyasi 2030” kabi dasturlar amalga oshirilmoqda. Ushbu dasturlar yoshlarning ilmiy, ijodiy va ijtimoiy faolligini rag‘batlantirish, ularni innovatsion loyihalarda ishtirok etishga jalb qilishga qaratilgan.

Yoshlar tafakkurini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari bir nechta tarkibiy elementlardan iborat. Ular: oila va oilaviy tarbiya, ta’lim muassasalari (maktab, kollej va universitetlar), jamoat tashkilotlari, madaniy-mass-media muhit, shuningdek, zamonaviy raqamli ta’lim va interfaol pedagogik texnologiyalar. Oila shaxsning birinchi ijtimoiy muhitidir va unda tarbiyalanuvchining axloqiy qadriyatlarini, dunyoqarashi va fikrlash madaniyati shakllanadi. Shu bilan birga, pedagogik institutlar yoshlarning tanqidiy va ijodiy tafakkurini shakllantirishda markaziy rol o‘ynaydi.

Pedagogik jihatdan yoshlar tafakkurini rivojlantirish nafaqat bilim berish bilan cheklanmasligi lozim, balki ularda mustaqil fikrlash, tahliliy va ijodiy ko‘nikmalarni shakllantirishni ham nazarda tutadi. Mashhur pedagoglar Lev Vygotskiy, John Dewey va Vasiliy

Suxomlinskiy shaxs tafakkuri ijtimoiy muhit va pedagogik yondashuvlar bilan chambarchas bog‘liq ekanligini ta’kidlagan. Shu nuqtai nazardan, interfaol metodlar, muammoli ta’lim, loyiha asosida o‘qitish va raqamli ta’lim vositalari yoshlarning tafakkurini samarali rivojlantirishda asosiy vositalar hisoblanadi.

Raqamli ta’lim bugungi kunda yoshlarning intellektual rivojlanishini ta’minlashda ajralmas vositaga aylangan. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 15–24 yoshdagi yoshlarning 80 foizi internetdan faol foydalanadi, va ularning katta qismi onlayn kurslar, elektron kutubxonalar va ilmiy resurslar orqali o‘z bilimlarini mustaqil ravishda kengaytirmoqda. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar yordamida murakkab ilmiy tushunchalarni vizual tarzda tushuntirish, virtual laboratoriyalar va loyiha ishlari orqali yoshlarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish mumkin.

Maqolaning maqsadi – Yangi O‘zbekistonda yoshlar tafakkurini rivojlantirishning ijtimoiy va pedagogik asoslarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, ularning jamiyatdagi rolini aniqlash va zamonaviy pedagogik va raqamli ta’lim yondashuvlarini baholashdir. Ushbu tadqiqot yoshlar tafakkurining shakllanishi va rivojlanishida ijtimoiy-pedagogik omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqur o‘rganishga qaratilgan.

Adabiyotlar sharxi. Yoshlar tafakkurini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik asoslarini o‘rganish va mustahkamlash borasida jahonda va mamlakatimizda bir qator izlanishlar olib borilgan. Jumladan, ijtimoiy pedagogika tushunchasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, mazkur tizim jamiyatda yoshlarni tarbiyalash, ularning jamiyat bilan integratsiyalashuvi hamda ijtimoiy tafakkurini shakllantirish jarayonlarini o‘rganadigan ilmiy yo‘nalishdir. Ushbu yo‘nalish yoshlarning ijtimoiy yetukligini, mas’uliyatli qarorlar qabul qilishini ta’minlashga qaratilgan metod va mexanizmlarni tadqiq etadi.

Ijtimoiy pedagogika tadqiqotlarida yoshlarni atrof-muhit bilan samarali muloqot qilish, ularning ijtimoiy norma va qadriyatlarni o‘zlashtirish mexanizmlari, shuningdek, yoshlar jamiyatdagi ijtimoiy rollarni anglash va amalga oshirish jarayoni tahlil qilinadi. Klassik nazariyalardan biri - Vygotskiy sotsiokultural nazariyasi, unda tafakkur va bilim ijtimoiy muloqot orqali shakllanadi. Bu nazariya yoshlar fikrlashining jamiyatga oid kontekstda o‘rishini asoslab beradi.

Albert Banduraning ijtimoiy-kognitiv nazariyasi ham fikr yuritish va o‘zini boshqarish qobiliyatlari ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘liq ekanini ko‘rsatadi - bu yoshlar tafakkurini pedagogik yo‘naltirishda muhim ilmiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Binobarin, O‘zbekiston ilmiy manbalariga yuzlanadigan bo‘lsak, mazkur mavzu yuzasidan Qambarov M.M, Sobirova G.Z singari bir qator olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan. Masalan “Ta’lim jarayonida tanqidiy

va ijodiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari” dissertatsiyasida tanqidiy va ijodiy fikrlashni pedagogik sharoitda oshirish yondashuvlari va metodikasi tahlil qilingan. Bu ish yoshlarning murakkab muammolarni hal etish, mustaqil baholash va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishda pedagogik vositalarni o‘rganadi. Qisqa xulosa sifatida ta’kidlashimiz mumkinki, Yoshlar tafakkurini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari bu sohada ilmiy tadqiqotlar orqali quyidagilarni o‘z ichiga oladi: Ijtimoiy muloqot, pedagogik sharoit va madaniy kontekst yoshlar fikrlashining shakllanishida markaziy rol o‘ynaydi. Tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish pedagogik yondashuv va metodikalar asosida ilmiy asoslanadi. Ijtimoiy kompetentlik tahlili yoshlar tafakkurida mas’uliyat, muammolarni hal etish va muloqot qobiliyatlarini ilmiy asosda aniqlaydi.

Shunday ekan, mazkur tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- nazariy tahlil – yoshlar tafakkuriga oid pedagogik va falsafiy qarashlarni o‘rganishda;
- tizimli yondashuv – ijtimoiy va pedagogik omillar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni aniqlashda;
- taqqoslash metodi – milliy va xalqaro ta’lim tajribalarini solishtirishda;
- mantiqiy umumlashtirish – xulosalar va ilmiy tavsiyalar ishlab chiqishda.

Tadqiqot umumta’lim maktablari va oliy ta’lim muassasalaridagi pedagogik jarayon misolida olib borildi.

Tahlil va natijalar: Tadqiqot natijalari yoshlar tafakkurini rivojlantirish jarayoni murakkab va ko‘p omilli ekanini ko‘rsatdi. Ushbu jarayon quyidagi asosiy ijtimoiy-pedagogik omillar bilan belgilanadi:

1. Ijtimoiy asoslar

Yoshlar tafakkuri, avvalo, jamiyatdagi ijtimoiy muhit ta’sirida shakllanadi. Oila, mahalla, ta’lim muassasalari va ommaviy axborot vositalari ushbu jarayonning muhim subyektlari hisoblanadi.[4] Nemis faylasufi I. Kantning “Inson tafakkuri tarbiya orqali mukammallashadi” degan g‘oyasi bugungi kun sharoitida ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Yoshlar tafakkurini rivojlantirish masalasi zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Globallashuv jarayonlari, axborot texnologiyalarining tez sur’atlarda rivojlanishi hamda ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar yoshlarning fikrlash madaniyati va dunyoqarashini shakllantirishga yangi talablarni qo‘ymoqda. Shu nuqtai nazardan, yoshlar tafakkurini rivojlantirishning ijtimoiy asoslarini ilmiy jihatdan o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy tadqiqotlarda shaxs tafakkurining shakllanishi ko‘plab ijtimoiy omillar bilan bog‘liqligi ta’kidlanadi. Mashhur psixolog Lev Vygotskiy inson tafakkuri ijtimoiy muhit ta’sirida

shakllanishini, ya'ni shaxs rivojlanishida ijtimoiy munosabatlar hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlagan. Uning fikriga ko'ra, inson tafakkuri jamiyatdagi muloqot jarayonlari, ta'lim va madaniy muhit orqali rivojlanadi. Yoshlar tafakkurini rivojlantirishda oila muhitining roli alohida ahamiyatga ega. Oila inson hayotidagi birinchi ijtimoiy institut bo'lib, unda shaxsning dastlabki dunyoqarashi, axloqiy qarashlari va fikrlash madaniyati shakllanadi. Ota-onaning farzand tarbiyasiga e'tibori, kitobxonlik muhiti, bilimga bo'lgan qiziqishni rag'batlantirish yoshlarning tafakkur salohiyatini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Yoshlar tafakkurini rivojlantirishda ijtimoiy-madaniy muhit ham muhim ahamiyatga ega. Jamiyatdagi ma'naviy qadriyatlar, milliy an'analar, tarixiy meros va madaniy muhit yoshlarning dunyoqarashini shakllantiradi. Kitobxonlik madaniyatining rivojlanishi, madaniyat va san'at muassasalarining faoliyati, ilmiy-ma'rifiy tadbirlar yoshlarning intellektual rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi davrda yoshlar tafakkuriga ta'sir etuvchi muhim omillardan biri axborot makoni hisoblanadi. Internet va raqamli texnologiyalar yoshlar uchun keng bilim olish imkoniyatlarini yaratmoqda. Shu bilan birga, axborot oqimining ko'pligi yoshlarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish zaruratini ham kuchaytiradi. Shuning uchun yoshlarni axborotni tahlil qilish, ishonchli manbalarni tanlash va mustaqil xulosa chiqarishga o'rgatish muhim vazifa hisoblanadi. Shuningdek, yoshlarning ijtimoiy faolligi ham tafakkur rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Turli jamoat tashkilotlari, yoshlar harakatlari, ilmiy loyihalar va volontyorlik faoliyatida ishtirok etish yoshlarning tashabbuskorligi, ijtimoiy mas'uliyati va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Bunday faoliyat yoshlarni jamiyat hayotida faol ishtirok etishga undaydi hamda ularda ijtimoiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

2. Pedagogik asoslar

Ta'lim muassasalarida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, muammoli o'qitish, loyiha asosida ta'lim berish kabi yondashuvlar yoshlar tafakkurini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, interfaol metodlar qo'llanilgan darslarda o'quvchilarning mustaqil fikrlash faolligi an'anaviy darslarga nisbatan 30–40 foizga oshadi.

Bundan tashqari, yoshlar tafakkurining rivojlanishida ta'lim tizimi muhim o'rin tutadi. Ta'lim muassasalari yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish, ularda mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar hamda ilmiy izlanishga yo'naltirilgan ta'lim jarayoni yoshlarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Pedagog olim John Dewey ta'lim jarayoni faqat bilim

berish bilan cheklanmasdan, balki shaxsning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qilishi kerakligini ta'kidlagan.

Yoshlar tafakkurini rivojlantirish pedagogika fanining muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Ta'lim jarayonining asosiy maqsadi nafaqat bilim berish, balki yoshlarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ularni ijodiy va tanqidiy tafakkurga ega shaxs sifatida shakllantirishdan iboratdir. Shu sababli zamonaviy pedagogika yoshlarning tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali metod va texnologiyalarni ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratadi.

Pedagogika tarixida buyuk pedagog Yan Amos Komenskiy ta'lim jarayonida o'quvchilarning tabiiy qobiliyatlarini rivojlantirish muhimligini ta'kidlagan. Uning fikricha, ta'lim jarayoni shunday tashkil etilishi kerakki, unda o'quvchilar bilimlarni faqat yodlab olish bilan cheklanmay, balki ularni tushunish va amaliyotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'lsin. Bu esa yoshlarning mantiqiy va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Yoshlar tafakkurini rivojlantirishda faol ta'lim metodlari muhim ahamiyatga ega. Pedagog olim John Dewey ta'lim jarayoni amaliy faoliyat bilan bog'liq bo'lishi zarurligini ta'kidlab, "ta'lim – bu hayotga tayyorgarlik emas, balki hayotning o'zidir" degan g'oyani ilgari surgan. Uning fikriga ko'ra, o'quvchilar bilimlarni amaliy faoliyat orqali egallaganlarida ularning tafakkuri yanada samarali rivojlanadi.

Yoshlar tafakkurini rivojlantirishda muammoli ta'lim ham muhim pedagogik asoslardan biri hisoblanadi. Ta'lim jarayonida muammoli vaziyatlar yaratish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi, ularni muammolarni tahlil qilish va yechim topishga o'rgatadi. Bunday yondashuv yoshlarning mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Mashhur pedagog Vasiliy Suxomlinskiy ham ta'lim jarayonida o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirish muhimligini ta'kidlab, ta'limning asosiy vazifasi – o'quvchilarda bilim olishga qiziqish va mustaqil fikrlash ehtiyojini shakllantirishdan iborat ekanligini qayd etgan. Uning fikriga ko'ra, o'qituvchi o'quvchilarni erkin fikrlashga undashi, ularning qiziqishlarini qo'llab-quvvatlashi va ijodiy faoliyatga jalb etishi zarur.

Zamonaviy pedagogika yoshlar tafakkurini rivojlantirishda interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish muhimligini ta'kidlaydi. "Aqliy hujum", "Munozara", "Kichik guruhlarda ishlash", "Loyiha metodi" kabi usullar o'quvchilarning ta'lim jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlaydi. Bunday metodlar yoshlarning erkin fikr bildirishiga, turli nuqtai nazarlarni tahlil qilishiga hamda jamoa bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishiga yordam beradi. Bundan tashqari, yoshlar tafakkurini rivojlantirishda ijodiy faoliyat va tadqiqot ishlari muhim rol o'ynaydi. O'quvchilarni

ilmiy izlanishga jalb qilish, mustaqil loyiha va tadqiqot ishlari bilan shug'ullanish imkoniyatini yaratish ularning tafakkurini yanada chuqurlashtiradi. Bu jarayon yoshlarning innovatsion fikrlashini rivojlantiradi hamda ularni yangi g'oyalar yaratishga undaydi.

Shuningdek, zamonaviy ta'lim tizimida raqamli pedagogika va axborot texnologiyalaridan foydalanish yoshlar tafakkurini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Elektron ta'lim platformalari, multimedia vositalari va onlayn resurslar yoshlarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytiradi va ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Umuman olganda, yoshlar tafakkurini rivojlantirishning pedagogik asoslari faol ta'lim metodlari, muammoli ta'lim, interfaol pedagogik texnologiyalar, ijodiy faoliyat hamda pedagog shaxsining professional mahorati bilan uzviy bog'liqdir. Ushbu pedagogik omillar yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish, ularni mustaqil fikrlaydigan va ijodkor shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

3. Raqamli ta'lim omili

OECD ma'lumotlariga ko'ra, raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish yoshlarning tanqidiy va analitik tafakkurini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. [5] O'zbekistonda raqamli ta'lim platformalarining joriy etilishi yoshlar tafakkurining yangi sifat bosqichiga ko'tarilishiga zamin yaratmoqda.

Yoshlar tafakkurini rivojlantirish masalasi pedagogika va ijtimoiy fanlar kesishgan nuqtada joylashgan. UNESCO ekspertlari ta'kidlaganidek, "XXI asr ta'limi yoshlarni fikrlashga o'rgatishi lozim, yodlashga emas".[6] Ushbu yondashuv Yangi O'zbekiston ta'lim siyosatining mazmuni bilan to'liq mos keladi. Sharq mutafakkiri Alisher Navoiy ham: "Ilm – aql ko'zgusi", deya tafakkur va bilimning uzviy bog'liqligini ta'kidlagan. Bugungi ta'lim tizimi ana shu meros asosida yoshlar tafakkurini rivojlantirishga xizmat qilishi zarur.[7]

Hozirgi davrda raqamli ta'lim yoshlarning tafakkurini rivojlantirishda muhim omil sifatida e'tirof etilmoqda. Xalqaro tadqiqotlarga ko'ra, raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonining muhim qismiga aylanib bormoqda. Masalan, 2023–2024 yillardagi xalqaro ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda internet foydalanuvchilari soni 5,6 milliardga yetgan, ya'ni global aholining katta qismi raqamli axborot makonidan foydalanish imkoniyatiga ega.

Shuningdek, yoshlar orasida raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi yanada yuqori. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 15 - 24 yoshdagi yoshlarning taxminan 80 foizi internetdan foydalanadi, bu esa raqamli ta'lim imkoniyatlarining kengayib borayotganini ko'rsatadi. Biroq raqamli ta'lim rivoji bilan bir qatorda raqamli tafovut muammosi ham mavjud. Tadqiqotlarga ko'ra, dunyo bo'yicha o'quvchilarning 50 foizga yaqini uy sharoitida kompyuterga ega emas, 43

foizi esa internetga ulanmagan. Bu holat ayrim hududlarda raqamli ta'lim imkoniyatlarining cheklanganligini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, xalqaro tahlillar shuni ko'rsatadiki, yoshlar va kattalar orasida raqamli ko'nikmalar darajasi o'rtasida sezilarli farq mavjud. Masalan, ayrim mamlakatlarda yoshlarning raqamli ko'nikmalari kattalarga nisbatan ikki barobar yuqori ekani aniqlangan. Raqamli ta'limning jadal rivojlanishi ayniqsa pandemiya davrida yanada tezlashdi. Maktab va universitetlarning vaqtincha yopilishi natijasida ko'plab davlatlarda ta'lim jarayoni masofaviy va onlayn shaklga o'tdi. Bu holat ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish zaruratini yanada kuchaytirdi.

Shu sababli bugungi kunda ko'plab davlatlar ta'lim tizimida raqamli savodxonlikni rivojlantirishni asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilamoqda. Mutaxassislar fikriga ko'ra, kelajakda raqamli savodxonlik o'qish, yozish va hisoblash kabi asosiy kompetensiyalar qatoriga kiradi. Raqamli ta'lim yoshlarning tafakkurini rivojlantirish, ularning mustaqil bilim olish ko'nikmalarini shakllantirish va zamonaviy axborot jamiyatida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Statistik ma'lumotlar ham raqamli texnologiyalar ta'lim tizimida tobora muhim o'rin egallayotganini ko'rsatadi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib aytganda, Yangi O'zbekistonda yoshlar tafakkurini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari davlat siyosati, ta'lim muassasalari faoliyati va zamonaviy pedagogik yondashuvlar uyg'unligida namoyon bo'lmoqda. Yoshlarning tanqidiy, mustaqil va ijodiy tafakkurini rivojlantirish ta'lim tizimining strategik vazifasiga aylanishi lozim. Mamlakatimizda yoshlar tafakkurini yanada rivojlantirish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- ta'lim tizimini tafakkurga yo'naltirish;
- o'qituvchi shaxsining strategik rolini kuchaytirish;
- ta'lim muhitini erkin va fikrga ochiq qilish;
- raqamli va axborot tafakkurini rivojlantirish;
- ilmiy va ijodiy faoliyatga yoshlarni keng jalb etish;
- oila va jamiyat bilan hamkorlikni mustahkamlash;
- yoshlar siyosatini tafakkur rivojiga yo'naltirish.

Yangi O'zbekiston sharoitida yoshlar tafakkurini rivojlantirish ijtimoiy va pedagogik omillarning uzviy uyg'unligi orqali amalga oshiriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishda oilaning tarbiyaviy roli, ta'lim muassasalari faoliyati, jamoat tashkilotlari va madaniy-mass-media muhitining ahamiyati muhimdir. Shu bilan

birga, yoshlarning ijtimoiy faolligi va innovatsion tashabbuslari davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan strategik resurs sifatida qaralmoqda.

Pedagogik yondashuvlar yoshlarning mustaqil fikrlashini, tanqidiy va ijodiy tafakkurini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Interfaol ta'lim metodlari, muammoli va loyiha asosida o'qitish, raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish yoshlarning bilimga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularning innovatsion ko'nikmalarini rivojlantiradi. Raqamli texnologiyalar, virtual laboratoriyalar, elektron kutubxonalar va onlayn kurslar yoshlarning mustaqil izlanish salohiyatini kuchaytiradi va ularni zamonaviy axborot jamiyatiga tayyorlaydi.

Shuningdek, tadqiqot shuni ko'rsatdiki, davlat dasturlari, xususan "Yoshlar – kelajagimiz", "Raqamli O'zbekiston" va "Innovatsion rivojlanish strategiyasi 2030" yoshlarning tafakkurini rivojlantirishda samarali mexanizm sifatida xizmat qiladi. Ushbu dasturlar yoshlarning ilmiy, ijodiy va ijtimoiy faolligini rag'batlantirish, ularni innovatsion loyihalarda ishtirok etishga jalb qilish va ularning tanqidiy tafakkurini shakllantirishga yordam beradi.

Yangi O'zbekistonda yoshlar tafakkurini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari quyidagi xulosalarga olib keladi:

1. Oila, ta'lim muassasalari, jamoat tashkilotlari va madaniy-mass-media muhitining uyg'unligi yoshlar tafakkurining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

2. Interfaol pedagogik metodlar va muammoli ta'lim yoshlarning mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlashini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi.

3. Raqamli ta'lim va innovatsion texnologiyalar yoshlarning izlanish salohiyatini oshiradi, ularni ilmiy va ijtimoiy faoliyatga tayyorlaydi.

4. Davlat siyosati va strategik dasturlar yoshlarni jamiyat taraqqiyotida faol ishtirok etishga rag'batlantiradi hamda ularning intellektual va innovatsion salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, yoshlar tafakkurini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari Yangi O'zbekistonning barqaror rivojlanish strategiyasida markaziy o'rin egallaydi va ularni jamiyat hayotida faol, ijodiy va tanqidiy fikrlaydigan shaxslar sifatida shakllantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. – Toshkent, 2018
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent, 2022.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston – taraqqiyot va islohotlar yo'lida. – Toshkent, 2021.

4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
5. OECD. Future of Education and Skills 2030. – Paris, 2019.
6. UNESCO. Education for Sustainable Development. – Paris, 2020.
7. Saidahmedov N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent, 2018.